

Республика илмий-амалий конференцияси

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

АБДУЛЛА КОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА  
ИНСТИТУТИ

УМУМФИЛОЛОГИК  
ТАДЌИҚОТЛАР:  
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

2015 йил 16 июнь

Атокли тилшунос олим,  
профессор Бозорбай Ўринбоев  
таваллудининг 80 йиллигига  
бағишенланган

“Илм ва таълим фидоийси”  
мавзусидаги илмий-  
амалий конференция  
материаллари



Жиззах-2015

## BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI MILLIY MUSIQA MERO SIMIZNING AHAMIYATI

N. Hasanova, A. Jumayev  
JDPI

Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda bo'lgani singari ta'lif - tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqdaki, bu ta'lifni milliy asoslarda shakllantirish va takomillashtirishda o'z samaralarini berayotganligi quvonarli holdir.

Mustaqillikning dastlabki yillardan ta'lif - tarbiya ishlarini milliy asoslarga tayangan holda shakllantirishning o'ziga xos tamoyillari, mazmuni belgilab berildi. Shunga ko'ra asosiy e'tibor milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodlar tarbiyasida bundan keng foydalanishga qaratildi.

Har bir jamiyatning o'z madaniyati va ma'naviy omillari mavjud bo'lgani singari, halqimizning milliy qadriyatlari yangi jamiyatni barpo etishda eng asosiy omillar hisoblanadi. Shu jihatdan halqimizning o'tmishi, ma'naviy merosini o'rganish, milliy mafkurani anglash, jismoniy va ma'naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy qadriyatimizni, an'analarimizni sevish va qadrlash tuyg'usini kamol toptirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardir. Zero, Ona - vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi bu insoniyat tarixi kabi qadimiylar muqaddas tuyg'udir. Uning g'oyaviy, ba'diy estetik ifodasi xalqimizning milliy musiqiy an'analarida, xususan, xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom, dostonchilik qo'shiqlarida o'zining o'chmas muxrini qoldirgandir. Shu bois ham ulardan bugungi kunda musiqiy ta'lif tizimida imkon qadar keng foydalanish ta'lifning milliy mazmunini boyitish va mustahkamlashga hizmat qiladi.

Musiqa san'ati hamma zamonalarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir. Yurtboshimiz A. I. Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch » asarida ta'kidlaganlaridek, « Musiqaning hayotbahsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimida topish qiyin. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda». Shunday ekan ta'lifning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinf larida o'quvchilarni mulliy musiqa merosimiz namunalari bilan chuqur va har tomonlama tanishtirib borish zarur. Bu o'rinda bizningcha quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Darsda o'quvchilar kuylashi va tinglashi uchun tanlanadigan repertuarda (dasturda ko'rsatilganlardan tashqari) xalq musiqasi ijodiyoti, bolalar folklor

qo'shiqlari namunalariga birlamchi e'tibor qaratish lozim. Chunki, bolalarda dastlabki qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishda ham bolalar halq qo'shiqlari o'zining ohangdorligi, yengil va oson eslab qolinish hususiyati, tushunarligi, o'yinbopligi bilan qulaylik tug'diradi;

2. Namunalarni ijrochilik a'nanalari, janri, g'oyaviy – badiiy mazmuni, qaysi mahalliy uslubga mansubligi, yetuk ijrochilar, qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday cholg'u sozlarida ijro etilishi kabi xususiyatlari haqida muxtasar bilim va tushunchalar, tasavvurlar beruvchi ma'lumotlar to'plash;

3. Xalq musiqa ijodiyotining folklor, mumtoz va maqom yo'naliishlari bo'yicha turli madaniy tadbirlar- konsertlar, mavzuli musiqiy kompozitsiyalar, ko'rik tanlovlari, taniqli xonanda – sozandalar bilan uchrashuvlar, ijodiy jamoalarga musiqiy sayohatlar uyushtirish kabilarni tizimli yo'lga qo'yish;

4. Xalq musiqa ijodiyotiga oid musiqalar vositasida o'quvchi yoshlarni yuksak ma'naviyat hamda estetik tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda olib boriladigan ta'limiy – tarbiyaviy ishlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish o'quvchilarni milliy musiqamizni sevish, qadrlash, kelgusida unga vorislik qilaoladigan shaxs sifatida kamol topishlarida muhim ahamiyat kasb etish bilan milliy – musiqiy ta'lim samaradorligini o shiradi.

Shu o'rinda yoshlar o'rtasida ommaviy estrada qo'shiqlarini tinglash, kuylash, taqlid qilishga haddan ziyod ruju qo'yish holatlari kuchayib borayotganligi ham musiqiy – estetik tarbiya borasidagi ishlar kutilgan natijalar bermayotganligining oqibati ekanligini ta'kidlash o'rinni bo'ladi. Bunday holatga qarshi kurashish, «Ommaviy musiqa» ning buzg'unchi ta'sirlaridan o'sib kelayotgan yoshlarni himoya qilishni yagona yo'li, ta'lim tarbiya uchun mas'ul pedagog – murabbiylarni bir maqsad yo'lida, kuchlarni birlashtirgan holda milliy musiqa madaniyatimiz durdonasi bo'lmish xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom asarlari bilan chuqur tanishtirib, ularning ongiga, ma'naviyatiga singdirish yo'lida keng qamrovli ta'lim – tarbiya ishlarini amalga oshirib borishdan iboratdir.

Xulosa shundan iboratki, milliy musiqa merosining yosh va navqiron avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashdagi o'rni tarbiya tizimida alohida o'ringa ega.

<i>Мирзоҳидова Л.</i> «Кутадғу билиг»да инсоннинг моддий дунё ва жамият хакидаги кечинмалари ифодаланган рамзий ўхшатишлар .....	169
<i>Eshmurodov X.</i> To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarni sodda gapga transformatsiyalash .....	172
<i>Эшмуров X.</i> То'лдирувчи ергаш гапли қо'шма гапларни содда гапга трансформациялаш .....	172
<i>Эшкуватов Ж.</i> Мулокот самарадорлигининг воситалари ва усуслари...174	
<i>Ёқубов Л.</i> Ўзбек тилида сўз ясалиши полисемияси масаласига доир мулоҳазалар .....	177
<i>Ҳасанова М.</i> Ўзбек адабий тилида сўз ясалишининг аҳамияти .....	178
<i>Xakimova O.</i> O'zbek tili leksikasida so'zning semantik strukturasi .....	180
<i>Турдибаев Н.</i> Махмуд аз-Замахшарий тилшунос олим.....	183
<i>Жуманазаров У., Жуманазарова Д.</i> Таълим жараёнида инновацион технологиялар: тадқиқ ва натижалар .....	185
<i>Atajonova A.</i> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida to'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalashdan foydalanish .....	187
<i>Ибрагимова Ф.</i> Чет тилини ўргатишида электрон дарсларнинг афзалликлари .....	190
<i>Jumaniyozova M., Qo'chqarova Sh.</i> Boshlang'ich sinfda o'r ganiladigan "Tovushlar va harflar" bo'limining mazmuni va uni o'r ganish vazifalari .....	192
<i>Ҳасанова К.</i> О воспитании учащихся средствами иностранного языка... 194	
<i>Уразбаев Х., Ибрагимова Ф.</i> Хорижий тилларни ўқитишида ўйинлар методи самарадорлиги .....	196
<i>Эргашева Н., Ганиев Н.</i> Место и значение русского языка в мире.....198	
<i>Н.Кушвактов, М.Исақулов.</i> Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш технологияси.....200	
<i>T.Кавылова, Н.Исанова.</i> Роль интернета при обучении иностранным языкам .....	202
<i>T.Кавылова, Т.Равшанова.</i> Некоторые приемы работы на уроках иностранных языков.....	204
<i>A.Абдурахимов, Қ.Бобоқулов, Ш. Ўролов</i> Мусиқий фанларни ўқитишида она тили ва адабиёт фанларини бир бири билан боғлиқлиги.....	205
<i>Х.Абдуллаев, С.Эгамбердиева</i> Самостоятельная Работа Студентов Как Компонент Творческой Деятельности.....	208
<i>E.Abdukarimova, O'.To'g'ilov</i> O'quvchilarda mumtoz musiqaga oid bilim va tushunchalarni shakkantirish.....	211
<i>M.Соиназарова</i> Комил инсонни тарбиялашда таълим ва тарбиянинг узвийлиги.....	213
<i>M.Tilanova, B.Sapayeva</i> Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rnatishda topishmoqlardan foydalanish.....	215
<i>Х. Назаров</i> Ёшлар тарбиясида илм олиш одоби.....	217
<i>Н.Усманов</i> Марказий осиё мутафаккирларининг мероси миллий гоямиз манбай сифатида.....	219
<i>N.Hasanova, A.Jumayev</i> Barkamol avlod tarbiyasidagi milliy musiqa merosimizning ahamiyati.....	222